

## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA YEKSKURSIYALAR ORQALI ATROF-MUHITGA MAS'ULIYATLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH

Utaganova Ugiloy Turanovna

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti, maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

Insoniyat juda qadim zamonlardan tabiat bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga intilib kelgan. Sababi, ibtidoiy inson tabiatdagi barcha mavjud narsa-xodisalarni o'zi kabi jonli (ruhi bor) deb o'ylab ular bilan ehtiyotlik ila muomala qilgan. Qadim odam tasavvuricha tog'u-toshlar, daryo-yu-ko'llar, osmon jismlari barbarisi jonlidir. Ibtidoiy odamlarning bunday qarashlari animizm deb yuritiladi. Qadimgi insonlarning tasavvuricha, butun hayvonlar va o'simliklar olami insoniyat olami bilan qonqarindoshdir va ular o'rtasida o'xshashlik va yaqinlikni daraxtlarning yil fasillariga qarab o'z ko'rinishini o'zgartirishida va hayvonlarning odamzod singari ba'zi xatti-harakatlarini bajarishida ko'radi. Masalan, hayvonlarning o'ziga yegulik axtarishi, bolalariga g'amxo'rliqi, o'zi uchun ehtiyotkorlik choralarini ko'rishi, xavfdan ogoh bo'lib yashashga intilishi, sadoqatligi insoniy xatti-harakatlarini eslatadi. Yoki daraxatlarning yil fasllarini his qilgan holda har faslga mos tarzda o'z ko'rinishini o'zgartirib turishi uning jonligidan darak berib turadi. Shuning uchun inson imkon qadar ularni avaylashga intiladi. Ularni xuda-behuda ranjitib qo'yishdan cho'chiydi. Chunki, u o'zining yashashi, turmush kechirishi, ro'zg'or uchun zarur bo'lgan aksariy istemol tovarlarini aynan o'simlik va hayvonot olamidanda oladi. Shu bosidan inson ularning ranjishidan va o'ziga kerakli bo'lgan nasalardan mahrum etilishidan qattiq cho'chiydi.

Ibtidoiy inson o'z ehtiyojlarini qondiradigan narsalarda, shuningdek, go'zal ko'rinishli, yoqimli, foydali narsalarda yaxshi ruhlar, aksincha, yokimsiz, badbo'y, zararli narsalarda yomon ruhlar makon ko'rgan deb tushungan va shu asosda tabiat predmetlariga muomala qilgan. Shuning uchun ibtidoiy inson gullar, daraxtlar, tog'liklar, suvliklar, o'simliklar va hayvonlar bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lgan. Ulardagi yaxshi va yomon ruhlarga ozor yetkazishdan ko'rqqan, shu ko'rquv va ehtiyotkorlik zamirida asta-sekin ekologik tarbiyaning shartlari, ko'rsatmalari va talablari shakllana boshlangan.

Ibtidoiy inson tabiatning rang-barangligiga, undagi ranglar, jilosiga, shakl ko'rinishiga, jinsiga, harakat-holatiga, ovozigaga, miqdoriga, tabiatda tez-tez sodir bo'lib turadigan stixiyali xodisalarga e'tibor berar ekan, tabiatning boyligi va qudratiga tan bergan va uning oldida u ojizligini his etgan. Qadimgi inson tabiatdagi har bir rangning, har bir shakl ko'rinishining, raqamlarning, harakat-xolatning o'zi mazmuni, mohiyati bor deb tushunib, ularga sig'ingan. Shular asosida tabiatning sirliligini tan olgan.

Bulardan ko'rinadiki, ekologik tarbiyaning ildizlari insoniyatning qadim turmush tarziga borib taqaladi. O'sha kezlardan insonlar tabiat bilan ehtiyotkorona muomalada bo'lishga intilishgan va buni yosh avlod ongiga sindirishga harakat qilishgan. Ibtidoiy odam o'z hayotining tabiat bilan chambarchas bog'liqligini his qilgani bois, xatto olamning asosida ham to'rtta tabiat unsuri—er, suv, havo, olov (quyosh) yotadi deb aytgan va aynan shu tabiat resurslarini ko'proq asrab-avaylashga intilgan. Xullas, qadimgi ajdodlarimiz tabiatni jiddiy kuzatar ekan, undan o'zi uchun foydali ko'p narsalarni kashf etishga muvaffaq bo'lgan. Shu kuzatishlar zamirida inson tabiatdan nusxa ko'chirib, juda ko'p bundyokorlik ishlarini amalga oshirgan. Masalan, ari uyasiga qarab, ko'p qavatli uylar qura boshlagan. Qushning parvozi samolyotning yaratilishiga turtki bo'lgan. Quyoshga qarab lampochkalar kashf etilgan va hakozi. Bularning barchasi kuzatishlar-tabiatni bilishning, tushunish va his etishning eng asosiy vositasi ekanligi namoyon etadi. Shunday ekan, hozirgi yoshlar ham tabiat bilan yaqindan oshna tutinsalar, uni jiddiy kuzatib, o'rganib borsalar xali ko'y yangi narsalarni kashf qilishga musharraf bo'lishlari mumkin. Chunki tabiat azaldan insonni to'ydirib, yedirib, ichirib, kiyintirib kelayotgan ona kabi g'amxo'r va mehribondir. U haligacha insonlardan o'z sahovatani darig' tutmay kelayotir. Bunga javoban insoniya ham ona kabi mehribon tabiatni har tamonlama asrab-avaylashi, uning boylıklaridan oqilona va rejali foydalanishi juda muhimdir. Demak, tabiatni asrash har kimning insoniy burchidir. Tabiatni asrab avaylash qadimiy ajdodlarimizdan merosdir. (Xalqning ekologik tarbiyani amalga oshirishning, yoshlar ongiga singdirishning o'z yo'llari bo'lgan.) Bu borada yosh avlodni hasharotlar olami bilan tanishtirish, ularni tabiatdagi ahamiyati va o'rmini tushuntirish orqali ekologik tarbiya berish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Xalq orasida suvni, ayrim jonivorlarni, hasharot, o'simliklarni asrab-avaylash maqsadida juda ko'p tabu-taqiqlar yaratilgan bo'lib, ulardan yoshlar orasida ekologik tarbiya maqsadida samarali foydalanish mumkin. Insonning tabiat bilan uyg'unlikka da'vat Qur'oni Karimning ko'plab suralarida uchraydi. Bunga «Naxl» - «Asalari» surasidagi xikmat, «Raxmon» surasidagi . . . «Hayoti dunyodan iymon va ezgu amallar bilan utgan kishining oxiratdagi mukofoti jannatdir», kabi jannat ta'rifi, «Shuaro» surasidagi Nux payg'ambarning kemasida odamlar bilan birga hayvonlar va parrandalarning jon saqlab qolishlari hamda, . . . «Duoxon» surasida do'zaxning o'rtasida o'sadigan zakkum daraxt gunohkorning taomidir,

**Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar.** Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel ta'riflanishi ko'rsatish mumkin. Hozirgi kunda Respublikamizda ekologik tarbiyaga e'tibor kuchaymoqda.

Zardusht payg'ambarning nomi bilan bog'liq bo'lib kelayotgan «Avesto» nafaqat diniy aqidalar majmuasi balki ulug' bir badiyfalsafiy yodgorlik bo'lib hisoblanadi. Zardusht dunyoning birinchi payg'ambari, birinchi shoiri, faylasufi. U insoniy farovon hayot haqidagi poklik va rostlik, mehnat va faoliyat g'oyalari tarannum etdi. «Avesto» - o'troqlashgan axolining hayot tarzini himoya qiluvchi, ekin-tekni, obodonchilikni, kanallar qurishni, shaharlar barpo etishni targ'ib etuvchi asardir. Avesto eramizdan oldingi IX asrlarda yaratilgan. «Avesto» Zardusht va mazdonarostlik dini ulamolari tomonidan to'planib, yozilib bo'lgach, maxsus kotiblar tomonidan 12 ming xo'kiz terisiga oltin suvi bilan ko'chirilgan. U 21 nask (kitob)dan iborat bo'lgan. Bizga qadar bu kitobning to'rtinchi qismi yetib kelgan bo'lib, u 1278 yil ko'chirilgan. Yodgorlikning bizgacha yetib kelgan qismi 8 millionu 300 ming kamidan iborat. Avesto miqlarida chorva mollari, xususan, ot e'zozlanadi. Shuning uchun iloxiy qudrat sohibi Ardvissura Anaxito va Mitra doim to'rt oq ot qo'shilgan faytun aravalarda uchib yurishadi. «Vandidod»da – «Men Axuramazdaning g'iyohlar ustiga yomg'irni mo'l yog'dirishimning sababi shuki yurt ahlining mollariga o't-o'lanlar, oziq-ovqatlar ko'paysin, odamlar uchun yemish hozirlashga imkoniyat tug'ilsin. Bularning bari tirikchilik moyasidir», «Avesto»da chorva mollari qatorida jumladan, xo'kiz, otlar singari kuchuk ham muqaddaslashtirilgan.

«Avesto»da uzoq yaylovlardagi cho'ponlar haqida g'amxo'rlik qilib, ular uchun uy-joylar, mollar uchun ulkan Saroy-quralar qurilganligi qayd etilgan. Unda hayvonlar zoti tozaligini saqlash, ularni urchitish, sog'lig'ini asrash bo'yicha qiziqarli va ibratli ma'lumotlar tadbirlar haqida muloxazalar mavjud. «Avesto»da dehqonchilik eng oliy janob kasb sifatida ta'riflanadi, dehqonlar e'zozlanadi. Aruvissura Anaxito «Yaylovlarning xamisha xurram, yashnab turishi ziroatlarning serhosil bo'lishi uchun daryolarning mudom serob, to'lib-toshib oqib turishini ta'minlayman» deydi Zardusht. «O'z vaqtida yerda toza urug' sepmaq 10 ming ibodatdan, har qanday qurbonlikdan afzal» deyiladi. Kitobda bog'u-ro'g'lar barpo etishga da'vat qilinadi. U dindorlarga: «Qum sahrosini o'z mehnati bilan serhosil yerga aylantirgan odam komil dindordir. Dashtu sahroda 10 yil tarkidunyo qilib yurgan odamdan ko'ra o'sha cho'lga bir tup ko'chat o'tqazib, ko'kartirgan inson afzaldir» deyish kerak. «Vandidod»ning 5 bobida shamol, hayvon, parranda, pasha orqali turli kasalliklar tarqalishi qayd etilgan. Kasallik tarqatadigan hayvon va xasharotlarni yo'qotishga da'vat etilgan xolda «Avesto»da uy jonivorlarini ehtiyot qilishga chaqirish kuchli bo'lgan. «Vandidod»da «Bir uy itini o'ldirgan kishi 10000 barsum, 10000 ruhiyatni tetiklashtiradigan o'simlik bargi jarima berishi lozim. Shuningdek, u 1000 ta echkiemar, 1000 ta suv qo'ng'izi, kasal tarqatuvchi pashshani o'ldirib gunohini yuvish lozim bo'lgan». Uy hayvonlaridan mushuk va itlarni boqish qoidasiga rioya ilishmaslik, ularning bemahal o'limga sabab bo'lmaslik uqtirilgan. Axriman yuborgan qurt, pasha va boshqa hashorotlar, yomon havo kasalliklarini asosiy manba deyiladi. Unda 9999 kasallikni paydo qilgan deyiladi. Xullas, ekologik tarbiya insoniyat ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotimiz har bir bosqichida o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan.

O'tmishning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Z.M.Bobur, Alisher Navoiy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud AzZamahshariy, Amir Temur va boshqalar tabiatni asrash, uning mehr ko'zi bilan qarashini qayta-qayta uqtirganlar.

#### Adabiyotlar

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertaciya-izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvom-v-kurse-fiziki-sredney-shkoly-na-m>

2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Х., Абдурахмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон. научн. журн. 2018. № 29(49). URL: <https://internauka.org/journal/stud/herald/49> (дата обращения: 10.03.2022).

3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. <https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gcg8os0kw>

4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunities-of-children.pdf>

5. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat. The quality of preschool education at the present stage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue :

10. [10.5958/2249-7137.2021.02402.2](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001)  
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001>
6. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat Tasks for preschool educators. [10.5958/2249-877X.2021.00078.3.](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023)  
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023>
7. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. <https://scientific-conference.com/images/PDF/2019/55/International-scientific-review-LIV-ISBN.pdf>
8. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Мактаб ўқувчиларини касб-хунарга ўргатиш йўллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20E%28%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>
9. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Таълим тизимини модернизациялашдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш усуллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20E%28%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>
10. Бердиева Мухаббат Мейлиевна. Педагогик қўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. “Профессионал таълим тизимида ислохотлар: малака ошириш таълим турида инновацион ғоялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. <https://staff.tiame.uz/storage/users/546/articles/iMJfaUDoPQYZqSxUhG7olj9aZ9XSLff9CSErkMxL.pdf>
11. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>
12. Усманова Саодат Эркиновна Возможности Использования Мультимедийных Компьютерных Программ В Развитии Детей Дошкольного Возраста. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46438589>
13. Jumayeva malika aliyevna, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child . International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/40>
14. Jumayeva Malika Aliyevna. (2021). Independent musical activity in preschool organizations. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(1), 9–10. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/16>
15. Aliyevna, J. M. (2021). The Social Activity of the Educator with the Family. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 401-403. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/338>
16. Lola Utasheva Shoturaevna. (2021). Social and pedagogical activities in preschool educational institutions. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11), 412–415. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/193>
17. Shoturayevna, U. L. (2021). Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 12, 395-397. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/336>
18. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.
19. Berdieva M.M. Increasing the research activity of a pupil of a preschool organization // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.
20. Berdieva Kh.M. Functions of the organization of advanced training of teachers in the field of education // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.
21. Utasheva L.Sh. Introducing preschoolers to the world of fiction // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and

**Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar.** Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С. {см. сборник}.

22. Usmonova S.E. Plot construction as a means of developing the creative abilities of children // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

23. Muhammadiyeva F.T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С

Mamatmuminova M.G. Features of the use of animation in the development of creative abilities of preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.